

## SHIMOLIY AFRIKALIK O‘Z DAVRINING TANIQLI KALOM OLIMI HAQIDA

**Yusupov Qobil Xakimboyevich**

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi  
Malaka oshirish markazi Namangan viloyati mintaqaviy filiali  
“Ijtimoiy va mutaxassislik fanlari” kafedrası o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Muallif mazkur asarlarining sharhida hukm va nazar bahsida Ahli sunna va mo‘taziliya qarashlarini bayon qilgan. Buning ortidan aqliy dalillarning turlari, fikriy jihodning muhimligi, Hazrati Alining ilmga oid qarashlari, kalom ilmiga qarshi qarashlarning tanqidi va istidlol turlari kabi mavzular keltirgan. Shuningdek, Ibn Sino nazdida falak tushunchasi va buning tanqidi, ahvol nazariyasi, Qur‘on maxluq masalasi, ilohiy sifatga aloqador narsalar, bandalarning amallari, ru‘yatulloh, husn va qubhning shar‘iyligi kabi mavzular mavjud. Qur‘onning ijozi, uning moddiy va ma‘naviy xususiyatlari bilan bularning Injil va Tavrodda aynan bayon qilingani dalil qilib ko‘rsatib dolzarb masalalarga e‘tibor qaratgani tufayli u bugungi kunda ham o‘z ahmiyatini yoqotmagan.

**Kalit so‘zlar:** Ahli sunna, aqida, nubuvvat, mustahil, javhar, tavhid, araz, qadim, hudus, sam‘iyyot.

### KIRISH (INTRODUCTION)

Dunyoning turli joylaridan qator ulamolar yetishib chiqib qur‘on, hadis, aqida ilmlariga oid asarlarni yozib ilm fan rivojiga ulkan hissalarini qo‘shganlar. Xususan, Shimoliy Afrikada yashagan Muhammad ibn Yusuf as-Sanusiy aqoid ilmida “Al-Muqaddima fi at-Tavhid”, “Aqida al-ahli at-Tavhid as-sug‘ra”, “Aqida as-Sanusiy al-vusta” va “Aqida al-ahli at-tavhid al-kubro” kabi durdona asarlarni yaratgan.

Muhammad ibn Yusuf as-Sanusiyning aqoid ilmiga oid asari qisqa, lo‘nda bo‘lishiga qaramay deyarli barcha masalalarni qamrab olgan. Shu bilan boshqa asarlardan tubdan farq qiladi. Mazkur asarlarining sharhida hukm va nazar bahsida Ahli sunna va mo‘taziliya qarashlari bayon qilingan. Buning ortidan aqliy dalillarning turlari, fikriy jihodning muhimligi, Hazrati Alining ilmga oid qarashlari, kalom ilmiga qarshi qarashlarning tanqidi va istidlol turlari kabi mavzular keltirilgan.

Shuningdek, Ibn Sino nazdida falak tushunchasi va buning tanqidi, ahvol nazariyasi, Qur‘on maxluq masalasi, ilohiy sifatga aloqador narsalar, bandalarning amallari, ru‘yatulloh, husn va qubhning shar‘iyligi kabi mavzular o‘rin olgan.

Qur'onning mo'jizaligi, uning moddiy va ma'naviy xususiyatlari bilan bularning Injil va Tavrodda aynan bayon qilingani dalil qilib ko'rsatib dolzarb masalalarga e'tibor qaratgan.

### **ASOSIY QISM (MAIN PART)**

Shimoliy Afrikada davrining eng buyuk kalom olimi deb tanilgan Muhammad ibn Yusuf as-Sanusiy (vaf. 895/1490) aqoid ilmida "Al-Muqaddima fi at-Tavhid", "Aqida al-ahli at-Tavhid as-sug'ra", "Aqida as-Sanusiy al-vusta" va "Aqida al-ahli at-tavhid al-kubro" nomli asarlarni yozgan. Shu bilan birga bu asarlarni sharhlagan va muxtasar qilgan.

Al-Muqaddima fi at-Tavhid.

Shar'iy hukmlarning taqsimi bilan boshlanadi. Asarda aqliy hukmlarga qisqacha to'xtalib o'tilgandan so'ng bandalarning amallari (fe'llari) borasida Jabariyya, Qadariyya va Ahli sunnaning qarashlari keltirilib kasb (ya'ni, Ixtiyoriy xatti-harakatlar sodir bo'lishida bandaning ta'sirini ifodalovchi atama) nazariyasi izohlangan. Shirkning turlariga to'xtalib o'tilgach ilohiyot (Uchta asosiy guruhda to'plangan islomiy e'tiqod asoslarining birinchisini tashkil etuvchi Ollohning mohiyati va sifatleri bilan bog'liq bo'lgan mavzularning umumiy nomi) va nubuvvat (Uchta asosiy guruhda to'plangan aqida asoslarining ikkinchisi bo'lgan payg'ambarlar, ayniqsa Muhammad alayhissalomga oid mavzularning umumiy nomi) mavzulari bilan bog'liq ba'zi atamalarga izoh berilgan; diniy ilmlarni o'rganishni endi boshlaganlar uchun zarur bo'lgan tamal (asos) bilimlar ixcham qilib berilgan. J.D. Lucaini tamonidan 1908-yil fransuzchaga tarjima qilingan "Al-Muqaddima" asari muallifi bilan bir qatorda Ibrohim ibn Hasan al-Bannoniy, Mulla Ilyos Ali ibn Hasan al-Babo'iy va Abdulg'ani an-Nablusiy tamonidan ham sharh qilingan.

Aqida ahli at-Tavhid as-sug'ra.

Sanusiyning eng mashhur asaridir; Aqida ahli at-Tavhid as-sug'ra, Ummul barohiyon yoki qisqacha as-Sanusiy nomlari bilan tanilgan. Asar kalima-i shahodatni tafsir qilish maqsadi bilan yozilgan bo'lib aqliy hukmlarni tasniflash bilan boshlangan. Alloh va payg'ambarlarga imon keltirish haqida vojib (majburiy), joiz va mustahil (imkonsiz) bo'lgan hususlar nimalardan tashkil topgani va bularni o'rganish har bir balog'atga yetgan musulmonga farz ekani bayon etilgan risolada Allohning imon keltirish vojib bo'lgan sifatleri nafsiy, salbiy, ma'naviy va xoliy guruhlariga bo'linib yigirmata bandda jamlangan. Alloh taologa berilishi va qabul qilinishi imkonsiz bo'lgan sifatlar (jaholat, o'lish kabi) ham ayni shaklda yigirma bandda ifodalanib bularning birinchi kategoriyasida yigirmata sifatning ziddi (qarama-qarshisi) borligi bayon qilingan. Alloh uchun qabul qilinishi imkonsiz ishni ifoda qilmagan (joiz; yaratish, yashatish, o'ldirish, rizq berish kabi) sifatlar esa qisqacha "mumkin" (uning mavjudligi yoki yo'qligi o'z tabiati uchun zarur emas yoki predmet va predikat

o'rtasidagi munosabat majburiy emas)ni kashf etib etmaslik shaklida izohlangan. Allohning borligi javhar (mustaqil o'rniga ega bo'lib, juzlarga bo'linmaydigan mayda qism) va araz (mustaqil o'rniga ega bo'lmagan va bunda javharga to'laligicha muhtoj bo'lishi) metodi bilan isbot qilingandan so'ng payg'ambarlarning xususiyatlari va Muhammad alayhissalomning nubuvvati tushuntirilib, avvalgi payg'ambarlarga, farishtalarga, samoviy kitoblarga va oxiratga imon keltirmasdan Muhammad alayhissalomga imon keltirish qabul qilinmasligi bayon qilingan. Risola kalima-i shahodatni bu shaklda tushunilib qalb bilan tasdiq etish lozimligi, shu bilan birga til bilan ko'p marotaba takrorlanishi ham muhim ekani bilan tugagan. Hajmining kichik bo'lishiga qaramay aqoid bilan bog'liq asos bilimlarni ixcham va tushunarli uslubda ifoda etgan al-Aqidat as-sug'ra ilohiy sifatlarni guruhlash nuqtai nazaridan diqqatga sazovordir. Islomiy ilm doiralarida "Aqoid an-Nasafiya"ga ko'rsatilgan qiziqishning huddi shunday ko'rinishi Shimoliy Afrikada "al-Aqida as-sug'ra" asariga ham qiziqish bildirilgan va asar madrasalarda o'qitilgan.

Abdul'ani an-Nablusiy (vaf. 1143/1731)ning "al-Latoif al-unsuiyya" nomi bilan nazmga o'g'irgan al-Aqida as-sug'ra asarini M.Wolff 1896-yili nemis tiliga, J.D. Lucaini esa 1896-yili fransuzchaga tarjima qilgan. Asar bundan tashqari, Bulak (1238-yili), Qohira (1271-yili), Bumbay (1310-yili), Marokash (1317-yili), Bonn (1916-yili) va boshqa ko'plab joylarda bir-necha bor bosilgan, qirqqa yaqin sharh va hoshiyalar yozilgan. "Tavhid ahli al-irfon va ma'rifatullahi va rasulih va al-burhan" nomli ilk sharh asar muallifiga mansubdir. Sanusiy shu qatorida "al-Aqida as-sug'ra" matnidan dalillarni chiqarib "Aqida as-sag'iroti as-sug'ra"ni yozgan va bunga ham sharh qilgan. Asar ushbu sharhi bilan birgalikda Qohirada 1282-yili chop etilgan. Sanusiy "al-Aqida as-sug'ra"ni "al-Aqida al-hafiza" nomi bilan muxtasar qilgan va bu muxtasarni Hasan ibn Muhsin "al-Mutali as-Sanusiy" nomi bilan sharhlagan. "al-Aqida as-sug'ra"ning boshqa sharhlari orasida Abul Hasan Ali ibn Muhammad al-Molikiy (vaf. 939/1532) (asar qo'lyozma nusxasi Sulaymoniya kutubxonasi 744/3 raqam ostida saqlanmoqda), Muhammad ibn Umar at-Tilimsoniy (vaf. 897/1492) (asar Sulaymoniya kutubxonasida 1468 raqam ostida saqlanmoqda). Gunaymi al-Ansoriy "Bahjat an-naziriyn", Ibrohim ibn Muhammad al-Bajuriy, Muhammad ibn Abul Qosim al-Fajjiy (Rabot, al-xazina al-amma kutubxonasi 1053 raqam ostida saqlanmoqda), Muhammad Ma'mun ibn Muhammad al-Hafsiy (Rabot, al-xazina al-amma kutubxonasi 720 raqam ostida saqlanmoqda), Abu Zayd Abdurrohman ibn Muhammad al-Fosiy (Rabot, al-xazina al-amma kutubxonasi 811 raqam ostida saqlanmoqda), Sa'd ibn Abdurrohman al-Vijhaniy (Rabot, al-xazina al-amma kutubxonasi 1228 raqam ostida saqlanmoqda), Muhammad ibn Ahmad ad-Dasuqi, Ali Qayravoniy "Ig'asa al-mujiddin", Abdulloh ibn Abdurrohman ar-Ruhiy "an-Nabza al-yasira", va Muhammad ibn Mansur al-

Hudhudiy (Sulaymoniya kutubxonasi 2430 raqam ostida saqlanmoqda) sharhlarni sanab o'tish mumkin.

“Aqida as-Sunusiy al-vusta”

Ushbu risola odamlar orasida “al-Jumal”, “al-Murshida”, “as-Sansusiyya al-vusta” va “al-Aqida al-vusta” deb ham tanilgan. Asar aqliy hukmlarlarining o'rganilgani muqaddima bilan sakkiz bobdan iborat. Birinchi bobda olamning qadim emasligi, ikkinchisida Allohning borligi dalillari, uchunchi bobdan boshlab yettinchi bobga qadar ilohiy sifatlar, yettinchi bobda Alloh haqida joiz bo'lgan hususlar va ru'yatulloh (Allohni jannatdan turib ko'rish), sakkizinchi bobda nubuvvat, Muhammad alayhissalomning payg'ambarligi va shunga bog'liq bo'lgan sam'iyot (qayta tirilish, sirot, shafolat, jannat, jahannam) mavzulari bayon qilingan. Olamning hudus (Allohning borligini isbotlash uchun koinotning yaratilishiga asoslangan dalillardan biri) ekani mavzusi o'ziga xos tarzda yoritilgan bo'lib, o'n varoq hajmidagi risolada sam'iyot mavzulari biroz kam o'rin olgani va butun masalalarga aqliy dalillar bilan izoh berishga harakat qilingani diqqatga sazovordir. As-Sanusiy boshqa risolalarida bo'lgani kabi “al-Aqida al-vusta”ga ham sharh yozgan (asar qo'lyozma nusxasi Sulaymoniya kutubxonasi 662 raqam ostida saqlanmoqda). “Umda al ahli at-tadqiq va at-tasdiq” nomli bu sharhiga Abdulg'ani an-Nablusiy, Said al-Kafit va Mahmud al-Maqdisiy tarafidan hoshiyalar yozilgan.

“Aqida ahli at-tavhid al-kubro”

To'liq nomi “Aqoidu ahli at-tavhid al-muhrijatu bi-avnillahi min zulumati al-jahli va raqobati at-taqlid al-murg'imati bi fazlillahi anfa kulli muvtadi'in aniyd” bo'lgan asar qisqacha “Aqida ahli at-tavhid al-kubro” va “Aqida as-Sansusiy al-kubro” deb tanilgan. Samusiyning Ilohiyot, nubuvvat va sam'iyot mavzularidan tashkil topgan bu asari muqaddima bilan o'n olti fasldan iboratdir. Muqaddimada ko'rko'rona taqlidning zararlari va taqlidiy imondan qutulishning lozimligiga to'xtalib o'tilgan. Birinchi faslda insonni bir tomchi suvdan mukammal borliq holiga kelishi va olamda bardavomiy o'zgarishlarning yuzaga kelishini Allohning borligining dalili o'laroq baholanadi. Ikkinchi fasldan sakkizinchi faslga qadar bo'lgan bo'limda sifatlar mavzusi o'rganilgan. So'ngra navbat bilan Allohning birligi, bandalarning amallari Alloh tamonidan yaratilishi, ru'yatuloh, Alloh taolo haqida joiz bo'lgan va joiz bo'lmagan hususlar, aslah (“Amallarning yaxshisini taqdir qilish Allohning zimmasiga vojib” degan nuqtai nazarida mo'tazilalar tomonidan qabul qilingan g'oyalardan biri) mavzulariga o'rin berilib, o'n ikkinchi faslda ilohiyot bahsi tamomlangan. O'n uchinchi faslda nubuvvat masalasi, o'n to'rtinchi faslda Muhammad alayhissalomning payg'ambarligi haqidagi dalillar bilan birgalikda bayon qilingan. O'n beshinchi faslda qayta tirilish va boshqa oxirat holatlariga o'rin berilgan. Risola oxirida gunohi kabira mavzusi bilan nihoyalangan. O'rta o'lchamda o'n to'rt varoq hajmidagi “Aqidatu ahli

at-tavhid” kalom masalalarini oson tushuniladigan uslubda bayon qilingan va Sunniy e’tiqod asoslarini o’ziga xos dalillar bilan isbotlashga harakat qilingan risoladir (asar 1310-yili Istanbulda chop etilgan).

Asarning bir qancha sharhlari topilgan bo’lib, “Aqidatu ahli at-tavhid”ning ilk sharhi muallifiga oiddir. “Umdat ahli at-tavfiq va at-tasdid fiy sharhi Aqidati ahli at-tavhid” nomli bu sharhning kirishida hukm (Kalom, mantiq va fiqh fanlarida ishlatiladigan atama) va nazar (Kalom va falsafa atamasi bo’lib, biror narsani tafakkur qilish, nazariy tadqiqot qilish ma’nosida) bahsida Ahli sunna va mo’taziliya qarashlari bayon qilingan. Buning ortidan aqliy dalillarning turlari, fikriy jihodning muhimligi, Hazrati Alining ilmga oid qarashlari, kalom ilmiga qarshi qarashlarning tanqidi va istidlol turlari kabi mavzular kelgan. Ilohiyot qismida imkon va hudus dalillari, olamning qadimligi fikrining raddiyasi, davr, tasalsul, burhoni tadbiq, yaratganning salbiy va subutiy sifatleri, Ibn Sino nazdida falak tushunchasi va buning tanqidi, ahvol nazariyasi, Qur’on maxluq masalasi, ilohiy sifatga aloqador narsalar, bandalarning amallari, ru’yatulloh, husn va qubhning shar’iyligi kabi mavzular o’rin olgan. Nubuvvat bo’limida payg’ambarlik haqiqatligi va insonlarning bunga bo’lgan ehtiyojiga to’xtalib o’tilgandan so’ng Payg’ambar alayhissalomning nubuvvatiga Qur’onning ijozi, uning moddiy va ma’naviy xususiyatlari bilan bularning Injil va Tavrodda aynan bayon qilingani dalil qilib ko’rsatilgan. Qabr olami, ba’s va nasslar bildirgan boshqa oxiratga aloqador holatlarning dalillari va bularga qilingan e’tirozlarning javoblari bilan birgalikda bayon qilingan. “Aqidatu ahli at-tavhid”dagi ma’lumotlar “Umda”da aqliy va naqliy dalillar bilan bayon qilingan. Ahli sunnaga muxolif bo’lgan, xususan mo’taziliya, jabariya, hashaviya va mutasavviflarning qarashlariga raddiyalar berilgan. Kitobda Abul Hasan al-Ash’ariy, Boqiloniy, Juvayniy, Roziy, Ibn at-Tilimsoniy kabi ash’ariy mutakallimlarining asarlaridan naqlar ham o’rin olgan. Kalom ilmi metodiga ko’ra yozilgan “Umda”, matni kabi oson tushuniladigan uslubda yozilgandir. U Sanusiyning aqid mavzusidagi eng hajmli asari bo’lib 140 varoq atrofidadir. Sanusiy keyinchalik bu sharhni qisqartirib boshqa bir kitob yozgan. Sarkisda “A’mida” nomi bilan zikr qilingan “Umda” risolasi Qohirada 1317 -yili chop qilingan.

“Aqidatu ahli at-tavhid” asari shu qatorida, Ahmad ibn Ali al-Manjuriy (“Durrat al-hijol” nashriyotida), Hasan ibn Mas’ud al-Yusiy, Ramazon ibn Abdulhaq al-Akkariy, Muhammad ibn Abdulloh ar-Ramasiy, Muhammad ibn Ahmad as-Dasuqiy, M. Illish al-Misriy tamonidan (1306-yili Qohira “Hidayat al-murid” nashriyotida) ham sharh qilingan.

### **XULOSA (CONCLUSION)**

Xulosa qilib aytganda, Muhammad ibn Yusuf as-Sanusiy aqid ilmida “Al-Muqaddima fi at-Tavhid”, “Aqida al-ahli at-Tavhid as-sug’ra”, “Aqida as-Sanusiy al-

vusta” va “Aqida al-ahli at-tavhid al-kubro” kabi qator asarlarni yozib kalom ilmi rivojiga ulkan hissasini qo‘shdi. Shu bois, u shimoliy Afrikada davrining eng buyuk kalom olimi deb e’tirof qilingan.

Muhammad ibn Yusuf as-Sanusiyning aqoid ilmiga oid asari qisqa, lo‘nda bo‘lishiga qaramay deyarli barcha masalalarni qamrab olgani bilan boshqa asarlardan tubdan farq qiladi. Qolaversa, bu asarlar muallif tomonidan sharhlangani va muxtasar qilinishi ham asar yozishda ko‘zlagan barcha jihatlarini to‘liq yoritishga imkon beradi.

Muallif mazkur asarlarining sharhida hukm va nazar bahsida Ahli sunna va mo‘taziliya qarashlarini bayon qilgan. Buning ortidan aqliy dalillarning turlari, fikriy jihodning muhimligi, Hazrati Alining ilmga oid qarashlari, kalom ilmiga qarshi qarashlarning tanqidi va istidlol turlari kabi mavzular keltirgan. Shuningdek, Ibn Sino nazdida falak tushunchasi va buning tanqidi, ahvol nazariyasi, Qur‘on maxluq masalasi, ilohiy sifatga aloqador narsalar, bandalarning amallari, ru‘yatulloh, husn va qubhning shar‘iyligi kabi mavzular mavjud. Qur‘onning ijozi, uning moddiy va ma‘naviy xususiyatlari bilan bularning Injil va Tavrodda aynan bayon qilingani dalil qilib ko‘rsatib dolzarb masalalarga e’tibor qaratgani tufayli u bugungi kunda ham o‘z ahmiyatini yoqotmagan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Zabidiy, Murtazo. Ithaf as-sada al-muttaqin, Bayrut: dor al-kutub al-ilmiya, 1311. J. II, 51, 139.
2. Bojuriy, Ibrohim ibn Muhammad. Hashiyat al-Bajuriy ala Umm al-barohin, Turkiya: Dor as-Hoshimiya, 2017, 10.
3. Anbobiy, Muhammad ibn Muhammad. Taqdir (Hoshiyat al-Bajuriy ala Umm al-barohinasari tarkibida) Turkiya: Dor as-Hoshimiya, 2017, 14-20.
4. Hoji Xalifa. Kashf az-zunun, Bayrut: dor ihyo at-turos al-arabiy.1999. I, 137; II, 1157-1158.
5. Sanusiy, Muhammad ibn Yusuf. Sharh sug‘ri as-sug‘ro. Said Fuda tahqiqi ostida. Ummon: Dor ar-Roziy, 2006. 27.
6. Tilimsoniy, Muhammad ibn Umar. Sharh ummu al-barohin. Bayrut: dor al-kutub al-ilmiya, 2009. 9-14.
7. Mualliflar jamoasi: Muhammad Ali Himshariy, Sayyid Abul Futuh, Ali Ismoil Muso. Al-Qomus al-Islamiy, Riyoz: Maktaba al-abyakan, 1997. I, 19-23.